

DENOV TUMANI ICHKI ISHLAR BO'LIMI TARIXIDAN

Sodiqov Mirsharif Sa'dullayevich

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[*mirsharifsodiqov85@gmail.com*](mailto:mirsharifsodiqov85@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Denov hududida ichki ishlar organlarining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiy-xronologik jihatdan tahlil etiladi. hududda militsiya tizimining tashkil etilishi, Denov rayon militsiya bo'limining dastlabki faoliyati, uning mahalliy ijroiya hokimiyati bilan munosabatlari, kadrlar tayyorlash masalalari hamda tashkiliy o'zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat faoliyatining takomillashuvi, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Denov, ichki ishlar organlari, jamoat tartibi, jinoyatchilik profilaktikasi, kadrlar, moddiy-texnik baza.

Abstract: This article provides a historical and chronological analysis of the formation and development of internal affairs bodies in the Denov area. It examines the establishment of the militia system in the area, the initial activities of the Denov District Militia Department, its relations with local executive authorities, personnel training, and organizational changes. The article also analyzes the improvement of service activities and the strengthening of the material and technical infrastructure during the years of independence.

Keywords: Denov, internal affairs bodies, public order, crime prevention, personnel, material and technical infrastructure.

Аннотация: В статье в историко-хронологическом аспекте анализируется процесс становления и развития органов внутренних дел на территории Денова. Освещаются создание системы милиции на данной территории, первоначальная деятельность Деновского районного отдела милиции, его взаимоотношения с местными органами исполнительной власти, вопросы подготовки кадров, а также организационные изменения.

Кроме того, анализируются совершенствование служебной деятельности и укрепление материально-технической базы в годы независимости.

Ключевые слова: Денов, органы внутренних дел, общественный порядок, профилактика преступности, кадры, материально-техническая база.

Kirish

O'zbekiston hududida ichki ishlar organlarining shakllanishi va rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, XX asrning dastlabki choragida yangi ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimining qaror topishi bilan joylarda huquq-tartibotni ta'minlovchi organlarni shakllantirishga ehtiyoj ortdi.

Denov hududida ham mazkur jarayonlar o'ziga xos sharoitda kechdi. Dastlab hududiy boshqaruv markazi Yurchi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Denovning ma'muriy maqomi va hududiy ahamiyati ortib bordi. Bu holat ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy jihatdan takomillashuviga ham ta'sir ko'rsatdi.

Muhokama.

Denov hududida militsiya tizimining shakllanishi 1920-yillarning boshlariga borib taqaladi. Dastlab Denov shahri va rayoni ma'muriy jihatdan birgalikda faoliyat yuritgan. O'sha davrda hududning markazi Yurchi hisoblangan. Mazkur davrda militsiya bo'limiga G'ulom Sodiqovich Shamgunov rahbarlik qilgani haqidagi ma'lumotlar mahalliy ichki ishlar organlari tarixining dastlabki bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

1926-yil 26-sentabrdan boshlab rayon markazining ko'chirilishi hududiy boshqaruv tizimida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. 1930-yillarning oxirigacha rayon militsiyasi bevosita rayon ijroiya qo'mitasiga bo'ysungan. Bu davrda mahalliy hokimiyat va militsiya organlari o'rtasidagi tashkiliy munosabatlar jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan.

1930-yilda Denov rayon militsiyasiga Ollomurod Safarov, 1932-yilda esa Alimuhammedov rahbarlik qilgani qayd etiladi. Ushbu davrda militsiya organlarining tashkiliy jihatdan mustahkamlanishi bilan bir qatorda, uning shaxsiy tarkibini shakllantirish masalasiga ham katta e'tibor qaratilgan.

1930-yillarda militsiya organlarining samarali faoliyat yuritishida malakali kadrlar masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. 1931-yildan boshlab komsomol yoshlarini militsiya safiga jalb etish va ular asosida yangi kadrlarni tayyorlashga e'tibor kuchaytirildi.

Denov rayon militsiyasi tarixidagi dastlabki yosh xodimlardan biri sifatida Rahmon Eshmonov nomi tilga olinadi. U 1932-yilda Denov rayon militsiya bo'limi rahbari Alimuhammedov tomonidan xizmatga qabul qilingan. Keyinchalik 1934-yilda Samarqand militsiya maktabida tahsil olgan va 1961-yilgacha ichki ishlar organlarida xizmat qilgan.

Denov ichki ishlar organlarining dastlabki avlod vakillaridan yana biri Chori Jumayev bo'lib, u mahalliy aholi orasida "Chori komandir" nomi bilan tanilgan. Bunday xodimlarning ko'p yillik xizmat tajribasi keyingi avlod ichki ishlar xodimlarini tayyorlash va xizmat an'alarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Urushdan keyingi yillarda Denov hududidagi ichki ishlar organlarining faoliyati yanada tizimli tus oldi. Ushbu davrda jamoat tartibini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tezkor aniqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan bo'ldi.

1948–1950-yillarda Lutfullo Ibragimov, 1953–1958-yillarda D. Korobov, 1959–1965-yillarda polkovnik Abdusamad Bozorboyev, 1965–1969-yillarda podpolkovnik Salom Jumayev, 1969–1972-yillarda Hikmat Shohaqimov, 1972–1977-yillarda podpolkovnik Abdurahmon Saidov hamda 1977–1982-yillarda podpolkovnik Qo'shoq Qarshiyevlar Denov hududidagi ichki ishlar organlariga rahbarlik qilgan.

Mazkur davrda Denov shahri va rayoni ichki ishlar organlari yagona tuzilma sifatida faoliyat yuritgan. Ularning asosiy faoliyati hududdagi jamoat tartibini

saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni aniqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Denovning ma'muriy maqomidagi o'zgarishlar ichki ishlar organlari tuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatdi. 1955-yilda Denov rayon bo'ysunuvidagi shaharga aylantirildi. 1958-yil 28-martdagi O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining qarori bilan Denov shahri tashkil etilib, viloyatga bo'ysundirilgani haqidagi ma'lumotlar hududning ma'muriy maqomi o'zgarishi bilan ichki ishlar organlari tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Denov ichki ishlar organlari tarixidagi muhim bosqichlardan biri 1982-yilga to'g'ri keladi. Aynan shu yilda Denov rayoni va shahri ichki ishlar bo'limlari alohida ikkita mustaqil tuzilmaga ajratildi. Mazkur tashkiliy o'zgarish shaharning aholisi va hududi kengayib borishi, shuningdek, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalarining murakkablashuvi bilan bog'liq edi.

1982-yildan keyingi davrda Denov shahar ichki ishlar bo'limiga turli yillarda V. N. Millevskiy, podpolkovnik Doniyor Elmurodov, polkovnik Omon Pardayevich Choriyev hamda podpolkovnik Rustam Ubaydullayevich Rahmatov rahbarlik qilgan.

Keyingi yillarda ham Denov shahar IIB rahbariyati tarkibida o'zgarishlar davom etdi. 1996–1998-yillarda polkovnik Juma Valievich Sodiqov, 1998–2002-yillarda podpolkovnik Murotov Erkin Choriyevich, 2002–2005-yillarda podpolkovnik Beknazarov Bo'ri Choriyevich, 2005–2010-yillarda podpolkovnik Boboqo'1 Boboqolov Erkin, 2010-yil martigacha polkovnik Jabborov Odiljon Hamidovich, 2010–2011-yillarda podpolkovnik To'xtashev Nuriddin, 2011–2012-yillarda podpolkovnik Mengliyev Olim Tillaevich, 2012–2016-yillarda podpolkovnik Tog'ayev O'ktam Tashanovich, 2017–2020-yillarda podpolkovnik Yusupov Ilhom Elmurodovich, 2020–2022-yillarda podpolkovnik Nurullayev Elbek Abduqodirovich hamda 2022-yildan boshlab polkovnik Yusupov Ilhom Elmurodovich rahbarlik qilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik

ta'minoti yetarli darajada bo'lmagani xizmat faoliyatiga muayyan qiyinchiliklar tug'dirgan. Keyinchalik davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar, moddiy-texnik bazani yangilash va xizmat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida ushbu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etildi.

Denov ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi tarixida sobiq Afg'oniston Demokratik Respublikasida harbiy xizmatni o'tagan va keyinchalik ichki ishlar tizimida faoliyat yuritgan xodimlar ham mavjud.

Ular qatorida Shaymardon Imomaliyevich Umaraliyev, Anvarxo'ja Bo'ronovich Ahmedov, Vladimir Nikolayevich Lyoshen, Shamsiddin Abdurahmonovich Saidov, Ochildi Ibrohimovich Eshmatov, Abdu'min Husaynovich Bozorov, Safarali Jo'rayevich Nurov, Baxtiyor Sheraliyevich Karimov hamda Narzulla Murodaliyevich Saidovlarning nomlari qayd etiladi.

2017-yildan boshlab O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri ichki ishlar organlari faoliyatini aholiga yanada yaqinlashtirish, xodimlarning xizmat sharoitlarini yaxshilash va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Mazkur jarayon Denov tuman IIB faoliyatida ham o'z aksini topdi. Xodimlarning xizmat vazifalarini zamonaviy sharoitlarda bajarishi uchun yangi ma'muriy bino qurilishi ushbu islohotlarning muhim natijalaridan biri bo'ldi.

2022-yil 24-oktabrda Denov tuman IIB shaxsiy tarkibi uchun barcha zarur sharoitlarga ega zamonaviy besh qavatli ma'muriy bino foydalanishga topshirildi. Yangi binoda xodimlarning xizmat faoliyatini tashkil etish uchun zamonaviy ish xonalari, fuqarolarni qabul qilish va murojaatlar bilan ishlash uchun maxsus joylar, tergov, jinoyat qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi, tashkiliy, kadrlar va jamoat tartibini saqlash yo'nalishlari uchun alohida xonalar tashkil etildi.

Xulosa

Denov tuman ichki ishlar bo'limining tarixiy rivojlanish yo'li hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash tizimining bosqichma-bosqich takomillashib borganini ko'rsatadi. Mazkur tarixiy jarayonni o'rganish

Denov hududida huquqni muhofaza qilish tizimining shakllanish qonuniyatlarini aniqlash, ichki ishlar organlari faoliyatining tarixiy tajribasini baholash hamda uning bugungi taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan yoritish imkonini beradi. Denov IIBning ko'p yillik faoliyati davomida shakllangan xizmat tajribasi, kadrlar salohiyati va moddiy-texnik imkoniyatlari bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda aholining tinch va osoyishta hayotini muhofaza qilishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Allayorov B.E. Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati (1917 1991-yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2024. – B. 165.
2. Xalq osoyishtaligi posbonlari // Denov-2023. – B. 5 - 10.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 18-fond, 1-ro'yxat, 471-ish, 19-varaq.
4. Бобоев М. Соатов О. Сурхондарё милицияси. – Самарқанд: “Суғдиён”. 1998. – Б. 215.
5. Халқ хизматида 75 йил. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1992 йил, 52-53 бетлар.
6. Denovtumani Ichki ishlar bo'limi xodimlari va faxriylarining xizmat faoliyatiga oid biografik ma'lumotlar. – Denov tumani IIB arxivi va xizmat materiallari. 2010-2023 yillar.